O'zbek - Protection Scriptures

Yeremiyo 1:18 Bugun Men seni bir qal’aday, temir ustunday va bronza devorday mustahkam qildim. Sen butun yurtga — Yahudo shohlariga, shahzodalariga, ruhoniylariga, yurt aholisiga qarshi chiqasan.

Hizqiyol 3:18 Agar Men fosiqqa “Sen albatta o‘lasan”, deb aytsam–u, sen esa o‘sha odamni bu haqda ogohlantirmasang, hayotini saqlab qolay deb, uni fosiqlik yo‘lidan qaytarmasang, o‘sha odam o‘z gunohi uchun o‘ladi. Biroq uning o‘limi uchun Men seni javobgar qilaman.

Yeremiyo 6:27 Ey Yeremiyo, xalqimni tekshirgin, Temirni sinaganday ularni sinagin, Tutgan yo‘llarini bilib olgin.

Levilar 26:19 Takabbur qaysarligingizni sindiraman, osmonni temir kabi qattiq, yerni mis kabi zarang qilaman.

Deuteronomy 23:5 Lekin Egangiz Xudo Balomga quloq solishni xohlamadi. Egangiz Xudo sizlarni sevgani uchun, Balomning la’natini barakaga aylantirdi.

Rimliklarga 12:21 Yomonlik sizni mag‘lub qilmasin, aksincha siz yomonlikni yaxshilik bilan mag‘lub eting.

Zabur 142:8 Saharda sodiq sevgingni menga bildirgin, Umidimni Senga bog‘layman. Yuradigan yo‘limni O‘zing ko‘rsatgin, Yuragimni Senga ochaman.

Zabur 142:10 Sening xohishingni qilmoqqa meni o‘rgat, Sen Xudoyimsan, Sening ezgu Ruhing Meni tekis so‘qmoqdan yetaklab borsin.

Zabur 93:12 Ey Egam, baxtlidir Sening tanbehingni olganlar,Baxtlidir Sening qonuningdan o‘rganuvchilar.

Sulaymonning Hikmatlari 27:12 Es–hushli odam xavf–xatarni ko‘rib yashirinadi, sodda esa to‘xtamasdan boraveradi, shuning uchun qiynaladi.

Filippiliklar 2:16 Mana shu buzuq va egri nasl orasida Xudoning nuqsonsiz, aybsiz va pok farzandlari bo‘lishingiz uchun hamma narsani nolimay, bahslashmay qilinglar. Hayotbaxsh xabarni mahkam tutar ekansiz, o‘sha buzuq va egri nasl orasida samodagi yulduzlar kabi porlaysizlar. Shunda Masih kelgan kuni, mehnatim zoye bo‘lmaganidan, qilgan ishlarim behuda ketmaganligidan faxrlanaman.

Ishayo 49:4 Men shunday dedim: “Men bekorga mehnat qildim, Kuchimni behuda, befoyda sarf etdim.” Ammo Egam meni hukm qiladi–ku, Mukofotlash Xudoyimning qo‘lidadir.

Zabur 75:4 O‘sha yerda sindirdi otashday o‘qlarni, Qalqonu qilichni, jang qurollarini.

Ibroniylar 13:21 Shu qadar buyuk ishlarni qilgan Xudoning xohish–irodasini bajara olishingiz uchun U sizlarga har qanday ezgu fazilatu in’om bersin. U O‘zining manzur murod–maqsadini Iso Masih orqali sizlarda bajo

keltirsin. Iso Masihga abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.
1 Korinfliklar 16:15 Birodarlar, Stefanning xonadonini bilasizlar. Ular Axaya hududida birinchi bo‘lib Masihga imon keltirganlar va o‘zlarini Xudoning aziz xalqiga xizmat qilishga bag‘ishlaganlar. Sizlardan bir iltimosim bor:
Filippiliklar 1:27 Nima bo‘lishidan qat’iy nazar, Masih Xushxabariga loyiq tarzda hayot kechirishingiz kerak. Shunday yashanglarki, men sizlarni ko‘rishga borganimda, Xushxabarning samarasi bo‘lgan imon uchun yakdillik bilan kurashib, bir ruhda mustahkam turganingizni ko‘ray! Ammo sizlarni ko‘rishga borolmasam, shunday xabar eshitay.
1 Korinfliklar 15:58 Shuning uchun, ey, aziz birodarlarim, hech ikkilanmay, imoningizda mahkam turinglar. Hamisha Rabbimiz Isoga xizmat qilishga bag‘ishlanib, yanada g‘ayratli bo‘linglar. Axir, Rabbimiz yo‘lida qilgan mehnatingiz samarasiz qolmasligini bilasizlar–ku!
Kolosaliklar 4:12 Iso Masihning quli, hamshaharingiz Epafras sizlarga salom yo‘llayapti. Xudoning irodasini to‘liq bajaradigan, imoni komil insonlar bo‘linglar, deb Epafras zo‘r g‘ayrat bilan, tinmay sizlar uchun ibodat qilmoqda.
4 Shohlar 19:34 — O‘zim uchun, qulim Dovudning haqi–hurmati uchun bu shaharni saqlayman, qo‘riqlayman.’”
Yeremiyo 15:20,21 Men seni bu xalq qarshisida Mustahkam bronza devorday qilaman. Ular senga hujum qilishadi, Lekin seni yenga olishmaydi. O‘zim sen bilan birga bo‘laman, Seni xalos qilib, qutqaraman. 21Ha, fosiqlar qo‘lidan xalos qilaman, Zolimlar changalidan ozod etaman.” Egamizning kalomi shudir.
Zabur 54:19 Garchi menga qarshilar ko‘p bo‘lsa ham, Birorta ham zarar yetkazmay Meni janglardan qutqaradi.
Hizqiyol 30:24 Bobil shohining kuchiga esa kuch qo‘shib, qo‘llariga qilichimni tutqazaman. Ha, Men fir’avnning qo‘llarini sindiraman, u dushmani oldida og‘ir yaralangan odam kabi ingraydi.
Vahiy Yohanno 3:18 Barhayotman. O‘lgan edim va mana, abadulabad tirikman. O‘limning va o‘liklar diyorining kalitlari Mendadir.
1 Yohanno 3:17 Agar o‘zimizga to‘q bo‘lib turib, muhtojlikda yashayotgan birodarimizni ko‘rsak–u, unga yordam bermay yuragimizni tosh qilsak, qanday qilib bizda Xudoning sevgisi joy oladi?
Ishayo 50:4 Toliqqanlarga so‘z bilan madad bersin, deb Egam Rabbiy menga dono til berdi. Har tong U meni uyg‘otadi, Donolarday tinglasin, deb qulog‘imni ochadi.
Zabur 17:40 Sen menga quvvat berib, jangga yubording, Menga qarshi otlangan yovni oldimda bosh egdirding.
2 Shohlar 22:40 Sen menga quvvat berib, jangga yubording, Menga qarshi otlangan yovni oldimda bosh egdirding.
Zabur 88:44 Qilichining damini qaytarding, Jangda unga Sen madad

bermading.

Hizqiyol 13:6 Payg‘ambarlaringizning ko‘rgan vahiylari soxta, karomatlari yolg‘ondir! Men ularni yubormaganman, ammo ular “Egamiz shunday demoqda”, deb gapiradilar. Yana o‘z gaplari amalga oshishini kutadilar!

Levilar 26:37 Hech kim sizni quvlamasa ham, joningizni hovuchlab qochasizlar, bir–biringizga turtilib yiqilasizlar. Ha, sizlar g‘animlaringizga bas kela olmaysizlar.

1 Korinfliklar 14:8 Agar burg‘u noaniq bir sado bersa, kim jangga tayyorgarlik ko‘rishni boshlaydi?

Ayub 15:24 Qo‘rquv va qayg‘u ularni dahshatga soladi, Urushga tayyorlanayotgan shohday, vahimada yashaydilar.

1 Kitobi 12:8 Gad qabilasidan ba’zilari Dovudga qo‘shilmoqchi bo‘lib, adirlardagi pana joylarga bordilar. Ular tajribali bahodir jangchilar bo‘lib, qalqon va nayzani ustalik bilan ishlatardilar. Sherday jasur, tog‘lardagi kiyikday chaqqon edilar.

1 Kitobi 12:33 Zabulun qabilasidan — 50.000 mohir jangchi. Ular Dovudga cheksiz sadoqati bilan xizmat qilish uchun tish–tirnog‘igacha qurollanib, jangga tayyor bo‘lib kelgan edilar.

1 Kitobi 12:38 Bu jangchilarning hammasi jangovar holatda bo‘lib, Dovudni butun Isroil ustidan shoh qilish maqsadida Xevronga kelgan edilar. Isroilning qolgan xalqi ham Dovudni shoh qilish maqsadiga qo‘shilgan edi.

Luqo 10:19 Men sizlarga ilonu chayonlarni bosib ezish hokimiyatini va shaytonning butun kuch–qudratini oyoq osti qilish hokimiyatini berganman. Hech narsa sizlarga zarar yetkazmaydi.

2 Korinfliklar 7:10 Axir, Xudo yaxshilikka ishlatadigan xafagarchilik tavba olib keladi, tavba esa najotga yetaklaydi va hech qanday armonu afsusga sabab bo‘lmaydi. Bu dunyo keltiradigan xafagarchilik esa o‘limga olib boradi.

2 Timo‘tiy 2:25,26 U o‘z raqiblarini muloyimlik bilan yo‘lga solsin. Kim bilsin, balki Xudo ularni tavbaga olib kelar?! Shunda ular haqiqatni bilib, 26 o‘zlariga kelarlar, iblisning tuzog‘idan qutulib qolarlar. Axir, iblis ularni asir qilib, o‘ziga tobe qilib olgan.

Naximiyo 4:15 Dushmanlarimizning bizga qarshi o‘ylagan fitnalaridan xabardor ekanimizni ularning o‘zlari ham eshitishdi. Ularning niyatini Xudo puchga chiqargan edi. Shunday qilib, hammamiz yana devorni ta’mirlash ishlariga qaytdik. Har kim o‘z ishiga bordi.

Zabur 72:24 O‘gitlaring bilan menga yo‘l ko‘rsatasan, Oxiri meni shon–shuhrat ila kutib olasan.

Pastor T. John Franklin
Church of Salvation, Healing, and Deliverance
COS-HAD.org